



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT TILIDA ISH YURITISH
ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH MARKAZI**

**“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

AXBOROT XATI

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlikda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tomonidan **2025-yilning 20-oktabr kuni o‘tkaziladi.**

Mazkur ilmiy-amaliy anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni, xususan, “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligiga 36 yil to‘lishi munosabati bilan **tashkil etilmoqda.**

ANJUMANNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

- 1. O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari**
- 2. O‘zbek alifbosi va imlosi muammolari**
- 3. Amaliy tilshunoslik masalalari**
- 4. Davlat tilida ish yuritish masalalari**
- 5. Soha lug‘atlarini tuzish va terminologiya masalalari**
- 6. Ta’lim bosqichlarida davlat tilining o‘qitilishi**

ANJUMANDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tilshunos olimlar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari professor-o'qituvchilari, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar mavzularga oid ma'ruzasi bilan ishtirok etishi mumkin.

Bir muallifdan birdan ortiq ilmiy maqola kelib tushsa, qo'yilgan talablarga javob bergan taqdirda, ulardan faqat bittasi qabul qilinadi.

Mazkur qoida hammualliflikdagi maqolalarga ham tegishli.

Tahrir hay'ati tomonidan ijobiy xulosa berilgan ilmiy maqolalar va tezislar **“Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar”** mavzusidagi V respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari sifatida nashr qilinadi.

To'plamga kiritilgan maqolalar **Google Scholar** xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi. Shuningdek, **ZENODO** ilmiy arxiv tizimiga joylashtiriladi va u yerda maqolaga **DOI identifikator raqami** biriktiriladi.

Ma'lumki, DOI raqami maqolaning elektron shakldagi doimiy manzilini ta'minlaydi va ilmiy manbalarni havola qilishda rasmiy identifikator sifatida xizmat qiladi.

Anjumanda ishtirok etish mutlaqo bepul.

Tahrir hay'ati mualliflar orasidan anjuman ma'ruzachilarini tanlab oladi va ushbu mualliflarga Tashkiliy qo'mita taklif xati yuboradi.

Anjumanning taqdimot tili **O'zbek tilidir.**

Ma'ruzachilarning taqdimoti Microsoft PowerPoint dasturida o'zbek tilida (*lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida*) tayyorlanishi va anjuman bo'lib o'tadigan kundan 10 kun avval Tashkiliy qo'mitaga taqdim etilishi lozim.

Anjuman ishtirokchilariga yo'l, mehmonxona va boshqa xarajatlar to'lab berilmaydi, barcha xarajatlar ishtirokchining o'z hisobidan amalga oshiriladi.

ILMIY MAQOLA MATNLARINI TAYYORLASH TALABLARI

1. Matn sarlavhasi (ilmiy maqola mavzusi) **qalin, katta harflar bilan qator o'rtasiga yoziladi** (*mavzuning qisqa bo'lishi tavsiya etiladi*).

2. Muallif (yoki mualliflar) haqidagi ma'lumotlar maqolaning dastlabki sahifasi ostida havola qilinadi, **unda muallifning ismi, familiyasi, ilmiy darajasi, unvoni, faoliyat yuritayotgan tashkilot nomi, elektron manzili qat'iy tartibda beriladi** (*lavozimi ko'rsatilishi talab etilmaydi*).

3. Maqola matni Microsoft Word dasturida; **Times New Roman 14 kegel shriftda; qatorlar orasi 1,15 intervalda tayyorlanadi.**

4. Matnning har to'rt tomonidan – **o'ng, chap, yuqori va past tomonlaridan bir xil – 20 mmdan hoshiya qoldiriladi.**

5. Matndan oldin ilmiy maqolaning mohiyati bayon etilgan, **kamida 100 ta so'zdan iborat tezis (annotatsiya) hamda kamida 10 ta so'zdan iborat kalit so'zlar beriladi.**

6. Maqolaning mavzusi, annotatsiya va kalit soʻzlar anjuman tili (yaʼni oʻzbek tili)dan tashqari **ingliz tilida ham berilishi lozim.**

7. Maqola matni kalit soʻzlardan soʻng bitta qator qildirilib, keyingi qatordan xatboshi bilan boshlanadi (**xatboshining oʻlchami 1,25 smni tashkil etadi**).

8. Matnda havolalar qavs ichida, **manba muallifi (yoki mualliflari)ning familiyasi, nashr etilgan yili va sahifasi koʻrsatilgan tartibda beriladi.**

Misol: (Абдурахмонов, Рустамов, 1984, 16-bet).

9. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati matnning oxirida **“Foydalanilgan adabiyotlar”** sarlavhasi ostida beriladi.

10. Ilmiy maqolaning toʻliq hajmi (annotatsiya va kalit soʻzlar bilan birgalikda) **6 sahifadan kam boʻlmasligi talab etiladi.**

11. Jadval raqami va izohi jadval ustida **Times New Roman 12 kegel shriftda alohida qatorning oʻng burchagida yoziladi.** Jadval ichidagi matnlar va raqamlar ham **Times New Roman 12 kegel shriftda** beriladi.

12. Rasm raqami va izohi jadval ostida **Times New Roman 12 kegel shriftda alohida qatorning oʻrtasida yoziladi.**

13. Ilmiy maqola matnida iqtibos keltirishda havola maʼlumotlari (**muallif familiyasi, ismining qisqartmasi, (nashr yili) foydalanilgan adabiyotning toʻliq nomi, nashr etilgan joyi va nashriyot nomi hamda umumiy sahifasi**) koʻrsatilishi talab etiladi.

14. Matn ichida keltirilgan iqtibos matnga alohida parcha sifatida kiritilishi va **qoʻshirnoqqa olinishi kerak.** Matnda iqtibos keltirilgan barcha havola manbalar adabiyotlar roʻyxatidan joy olishi shart.

Maqola matnida havolalar keltirish uchun APA 7 tizimi qabul qilingan. Shu sababli yuboriladigan matnlar quyida keltirilgan manba koʻrsatkichi tizimiga mos kelishi lozim:

Kitoblarni manba sifatida taqdim etish:

Matn ichida: (Azimov, 1992, 37-bet)

Manbaning adabiyotlar roʻyxatidagi yozilishi quyidagicha boʻladi:

Нурмонов А. (2002). *Ўзбек тили унослиги тарихи*. Fan.

Maqolalarni manba sifatida taqdim etish:

Matn ichida: (Azimov, 2023, 44-bet)

Maqolalar nomi odatdagi jumla tartibida yoziladi, yaʼni birinchi soʻz katta, boshqa soʻzlar (atoqli otlardan tashqari) kichik harflarda boshlanadi. Maqolalaning adabiyotlar roʻyxati qismidagi yozilishi quyidagicha boʻladi:

Azimov I. (2023). Lotin alifbosi asosida tuzilgan oʻzbek alifbolar xususida. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari*, 42-48.

Adabiyotlar roʻyxatida jurnal nomlari qisqartirilgan shaklda qoʻllanilmaydi.

Tezislarni manba sifatida taqdim etish:

Matn ichida: (Bobojonov, 2022, 71-bet)

Tezisning adabiyotlar roʻyxatidagi yozilishi quyidagicha boʻladi:

Bobojonov F. (2022). O‘zbek tilida nomlash va neyning xizmati / *Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.*

Tashkiliy qo‘mita va Tahrir hay‘ati maqolalarni saralash va tahrirlash huquqiga ega.
Javobgarlik shaxsan mullifning o‘zida saqlanib qoladi.

Hurmatli muallif, sizning maqolangiz yuqorida ko‘rsatilgan talablarga javob bermagan taqdirda, Tahrir hay‘ati tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

Anjumanda ishtirok etishni xohlovchilar diqqatiga:

Anjumanda ishtirok etuvchilar maqola matnini anjuman yo‘nalishini ko‘rsatgan holda **2025-yilning 15-sentabr sanasiga qadar (o‘sha kuni ham)** hududlar bo‘yicha quyidagi telefon raqamlari orqali yuborishlari tavsiya etiladi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Babadjanov Farxad Kurbanbayevich	+998 91 394 04 42
Andijon viloyati	Quldashv Nizomidin Axmadaliyevich	+998 94 132 21 29
Buxoro viloyati	Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna	+998 91 419 60 89
Farg‘ona viloyati	Quldashv Nizomidin Axmadaliyevich	+998 94 132 21 29
Jizzax viloyati	Axmedov Sobir Nazarqosimovich	+998 94 342 30 63
Namangan viloyati	Bayxanova Shoira Dadaxanovna	+998 94 309 88 67
Navoiy viloyati	Suyunov Husniddin Miltiqboyevich	+998 97 297 32 21
Qashqadaryo viloyati	Tursaxatov Erkin Elmurodovich	+998 97 312 89 20
Samarqand viloyati	Abdiyev Murodqosim Bolbekovich	+998 90 606 09 63
Sirdaryo viloyati	Yodgorov Hamid Ergashevich	+998 97 278 72 00
Surxondaryo viloyati	Sattorov Shokir Jabborovich	+998 97 351 79 00
Toshkent viloyati	To‘ychiyev Abdirashid Mustafayevich	+998 97 547 31 10
Toshkent shahri	Omonov Muhammadaziz Xalimjon o‘g‘li	+998 99 728 29 00
Xorazm viloyati	Begimov O‘ktam Xaytbayevich	+998 93 118 14 18

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi.

“Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani haqida batafsil ma‘lumot olish uchun https://t.me/dtrm_anjuman2024 telegram guruhiga tashrif buyuring.

**QURAMA SHEVALARINI TARIXIY-ETNOGRAFIK O'RGANISH MASALALARI
VA TURK, TURKIY ATAMALARI HAQIDA**

Tursunali Mirzaqulov*

Annotatsiya

Matn (kamida 100 ta soʻzdan iborat)

Kalit soʻzlar: soʻz, soʻz, soʻz... (kamida 10 ta soʻzdan iborat)

**On the Issues of the Historical and Ethnographic Study of Composite
Dialects and Turkic Terms**

Annotation

Tekst (kamida 100 ta soʻzdan iborat)

Key words: word, word, word ... (kamida 10 ta soʻzdan iborat)

Qurama vodiysi (bu atama shartli atama – T.M.) etnografik jihatidan atroflicha oʻrganilishi kerak. Oʻzbek-quramalarning yapaloq, samarchuk, koʻchartoʻp, boytoʻp, qalmoqtoʻp, qatagʻon, achamayli, samirak, jaloyir, uyshun, kerayit, olchin, argʻin, kebanak, chilikchi, chilkor, qorasiyroq, qaysar (Hурмонов, 2002, 16-бет)

Foydalanilgan adabiyotlar

Нурмонов А. (2002). *Ўзбек тилишунослиги тарихи*. Fan. Toshkent.

Azimov I. (2023). Lotin alifbosi asosida tuzilgan oʻzbek alifbolar xususida. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari*, 42-48.

Bobojonov F. (2022). Oʻzbek tilida nomlash va neyning xizmati / *Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazi*.

* filologiya fanlari doktori, professor, Ipak yoʻli innovatsiyalar universiteti, MUZ.201516@gmail.com